

"Olmaliq KMK" AJ Monopoliyaga qarshi Komplaens-nazorat xizmati faoliyatining samaradorligini baholash yoʻnalishlari va indikator koʻrsatkichlari

T/r	Amalga oshirilgan ishlar	Bajarilishi	Izoh
I. Raqobat toʻgʻrisidagi qonunchilik talablari buzilishining oldini olish boʻyicha mexanizm va huquqiy asoslarning yaratilganligi			
1.1	Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi faoliyati tartibini belgilovchi ichki nizom ishlab chiqilganligi va tasdiqlanganligi.	“Olmaliq KMK” AJ boshqaruv raisining 2022 yil 31 oktyabrdagi 1258-sonli buyrugʻi bilan “Olmaliq KMK” AJ da Monopoliyaga qarshi kurashish boʻyicha komplaens-nazorat tizimini joriy qilish va uning ishlash tartibi toʻgʻrisidagi Nizom” tasdiqlangan (https://agmk.uz/oz/menu/korrupsiyaga-oid-hujjatlar).	Nizom ilova qilinadi. (https://agmk.uz/oz/menu/korrupsiyaga-oid-hujjatlar).
1.2	Raqobat toʻgʻrisidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish maqsadida bir yilga moʻljallangan "yoʻl xaritasi" ishlab chiqilganligi va tasdiqlanganligi.	Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 2022 yil 11 maydagi PQ-240-son qarori ijrosini taʼminlash maqsadida, Kombinat ijro apparatidagi boʻlim va xizmatlar hamda korxonalar va sexlar kesimida “Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash ishlari”ni tashkil qilinib, Shtatlar birliklari, Tashkiliy tuzilma, Lavozimlar, xodimlar, vakant lavozimlar, barcha ishchi va xodimlarning vakolat va funksiyalari, funksiyaga oid munosabatlar (biznes jarayonlar bosqichlarining batafsil tavsifi), har bir boʻlinma yoki korxonalar (sex)ning tashkiliy tuzilmasi xavf-xatar reestri tuzildi va chora tadbir loyihasi ishlab chiqildi.	xavf-xatar reestri ilova qilinadi

1.3	Raqobat cheklanishiga, shuningdek raqobat yoki tabiiy monopoliya sharoitlarida iste'molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlar haqida xabar berishga mo'ljallangan aloqa vositalari tashkil etilganligi.	<ol style="list-style-type: none"> 1. Ishonch telefon raqami "Call" markazi +998 70 619 23-33. 2. OKMK AJ rasmiy veb.saytdagi sahifaga havola https://agmk.uz/oz/menu/korrupsiyaga-oid-hujjatlar 3. OKMK AJ ning telegram-bot kanali: @agmk_bot/(@OKMK_OFFICIAL_bot) 4. OKMK Komplaens-nazorat xizmatining Elektron pochta manzili: stop.corruption@agmk.uz 5. Ijtimoiy tarmoqdagi sahifa http://www.facebook.com/agmkofficial 	
1.4	Monopoliyaga qarshi komplaens haqidagi hisobot sifatli va o'z vaqtida taqdim etilganligi va rasmiy veb-saytga joylashtirilganligi.	Monopoliyaga qarshi komplaens haqidagi "Olmaliq KMK" AJning hisobot Qo'mitaga yuborildi. OKMK AJning rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan hisobotlar bilan quyidagi havola orqali tanishish mumkin: https://agmk.uz/oz/menu/ijtimoiy-ahamiyatga-ega-malumotlar	
II. Raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablari buzilishi xatarlarini aniqlash, baholash va ularning oldini olish bo'yicha tadbirlar amalga oshirilganligi			
2.1	Faoliyatga tegishli materiallarni o'rganish natijasida (shu jumladan, raqobatni yoki iste'molchilarning huquq va manfaatlarini cheklaydigan normalarni aniqlashga qaratilgan ichki hujjatlar xatlovdan o'tkazishda) aniqlangan qonunbuzilish holatlari soni va sohasi.	Hisobot davrida "Olmaliq KMK" AJ tarkibiy bo'linmalarida 8 ta o'rganish o'tkazilib, mansab lavozimidan foydalanish xolatlari aniqlangan.	<ol style="list-style-type: none"> 1.) "Olmaliq KMK" AJ Moddiy texnik ta'minot boshqarmasi 2.) Avtomobil transport boshqarmasi 3.) Texnologik transport boshqarmasi 4.) Olmaliqmetallurgqurilish. 5) Maksheyderlik bo'limi 6) Angren Kon boshqarmasi. 7) Xonjiza ruda boshqarmasida o'tkazilgan xizmat tekshiruvlari

2.2	Aniqlangan qonunbuzilishlar va kamchiliklarni bartaraf etish hamda kelgusida yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha ko‘rilgan choralar.	Aniqlangan qonunbuzilishlar va kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha tegishli choralar ko‘rildi.	2023-yil davomida 41-nafar xodimga 73 393 248, 32 so‘m miqdorida intizomiy jazo chorasi qo‘llanilgan, 3ta xodim egallab turgan lavozimidan ozod etilgan
2.3	Faoliyat davomida oldi olingan qonunbuzilish holatlari soni va sohasi.	<i><u>Yil davomida oldi olingan qonunbuzilish holatlari to‘g‘risidagi ma‘lumot soni va sohalari ko‘rsatilgan holda taqdim etiladi.</u></i>	-
2.4	Tashkilot faoliyatida raqobat cheklovlarini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan omillar aniqlanganligi va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilganligi.	Komplaens-nazorat xizmati tomonidan 2023-yilning fevral-iyul oylari mobaynida jami 1302 ta Texnik topshiriqlar loyihalari aksilkorrupsiyaviy ekspertizadan o‘tkazildi, shundan jami 673ta Texnik topshiriqlar loyihalariga ijobiy xulosalar berildi. 629tasida raqobatni cheklovchi qoidalarni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan omillar aniqlanganligi sababli qayta ishlab chiqish uchun ijrochilarga qaytarildi.	
2.5	Qabul qilinadigan ichki hujjatlarning loyihalari o‘rganilganligi, bunda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan normalar aniqlangan taqdirda, uni mazkur qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqlashtirish yuzasidan tegishli ishlar amalga oshirilganligi.	Istiqbolli investitsiya loyihalarini amalga oshirish doirasida imzolangan 1 dona valyuta kontrakt loyihasini ko‘rib chiqish jarayonida Komplaens-nazorat xizmati tomonidan kontrakt loyihasi yuzasidan kiritilgan taklif va e‘tirozlar inobatga olinishi natijasida taqdim etilgan kontraktning dastlabki qiymatini tushirishga va natijada 3 mln. AQSH dollari miqdorida valyuta mablag‘larini iqtisod qilishga erishildi.	-

2.6	<p>Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari o‘zgarishlaridan kelib chiqib, idoraviy hujjatlarga tegishli o‘zgartirishlar kiritish yuzasidan ishlab chiqilgan takliflar va ularning amaliyotga tatbiq etilganligi.</p>	<p>Joriy yilning sentyabr, noyabr va dekabr oylari mobaynida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaning oldini olishda preventiv mexanizmlarni hamda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalarining faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida ID-88543 (V-1)" qarori loyihasi yuzasidan "Olmaliq KMK" AJning taklif va e‘tirozlari Agentlikka ishchi tartibda taqdim etilgan.</p>	
2.7	<p>Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi faoliyati yuzasidan OAV va ijtimoiy tarmoqlarda chiqishlar.</p>	<p>OAV va ijtimoiy tarmoqlarda mazkur sohaga doir chiqishlarning havolalari taqdim etiladi. Kombinatning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlari 14ta "Rangli metallar" gazetasi 8ta "За цветные металлы" gazetasi 4ta "OKMK TV" telekanali 22ta yoritilgan.</p>	
<p>III. Davlat organlari va xo‘jalik yurituvchi subyektlar rahbarlarining raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik talablari buzilishining oldini olish bo‘yicha amalga oshirgan ishlari</p>			
3.1	<p>Tashkilotda monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish va uning faoliyat yuritishini ta‘minlash maqsadida vakolatli bo‘linma tayinlanganligi, uning zarur resurslar va boshqa moddiy-texnik baza bilan ta‘minlanganligi.</p>	<p>2021 yil 7 iyundagi 26/08-f -son qarorining 2.5.- bandiga asosan hamda Kombinatning 2021 yil 21 maydagi 00653-son buyrug‘iga muvofiq, “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ ijro apparatida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi, ya’ni “Komplaens-nazorat xizmati” faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Komplaens-nazorat xizmatining faoliyat yuritishini ta‘minlash maqsadida Xizmat uchun barcha zaruriy shart-sharoitlar xususan 2 ta xizmat xonalari, 2-ta yengil avtotransport vositalari, 6ta kompyuter, 1ta noutbuk kabi resurslar va boshqa moddiy-texnik baza bilan to‘liq ta‘minlangan.</p>	

3.2	Tashkilot rahbarlari tomonidan hay'at yig'ilishlari va boshqa yig'ilishlarda tashkilot faoliyatining raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligini ta'minlash masalasi ko'rib chiqilganligi.	"Olmaliq KMK" AJ Boshqaruv raisining 2023 yil 14 noyabrdagi 001676-son buyrug'i asosida Kombinat hamda uning tarkibiy bo'linmalarida "Korrupsiyani faqatgina birgalikda yenga olamiz!" shiori ostida dolzarb aksilkorrupsiyaviy oylik tashkil qilindi. Ushbu tadbirlar doirasida Kombinat ijro apparati hamda barcha tarkibiy tuzilmalar xodim va rahbarlari qamrab olindi. O'tkazilgan tadbirlar to'g'risidagi media ma'lumotlar (sur'atlar, videolavhalar, TV va boshqa OAVlardagi chiqishlar) Agentlikka va boshqa manfaatdor vazirlik va idoralarga taqdim etildi.	
IV. Xodimlarning raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablari buzilishining oldini olishga oid ichki tartib-taomillardan xabardorligi hamda ushbu sohada bilim va ko'nikmalarini oshirish bo'yicha tadbirlarning amalga oshirilganligi			
4.1	Hisobot yilida xodimlarning raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari bo'yicha bilim va ko'nikmalari oshirilganligi.	O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi Akademiyasi bilan 2023 yil 6-15 aprel kunlari 54 nafar kombinat xodimlarini jalb etilgan holda "Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha samarali idoraviy chora-tadbirlar tashkil etilishini ta'minlash" moduli bo'yicha 14 soatlik hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuristlar malakasini oshirish markazi bilan birgalikda Kombinat tarkibiy bo'linmalarida faoliyat yuritayotgan korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens-nazorat tizimiga mas'ul mutaxassislarni "Halollik vaktsinasi bilan emlash" tamoyili asosida korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorat mavzusi bo'yicha malakasini oshirish uchun qisqa muddatli (10 soat) 133 nafar xodimlar ishtirokida o'quv kurslari tashkil etilidi va sertifikatlar topshirildi.	
4.2	Tashkilot xodimlarini raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etish bo'yicha tayyorlash va qayta tayyorlashga oid maxsus o'quv dasturlari, qo'llanmalar mavjudligi.	Adliya vazirligi huzuridagi Yuristlar malakasini oshirish markazi tomonidan raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablarining buzilish xavfini aniqlash va oldini olishga qaratilgan monopoliyaga qarshi komplaens tizimini samarali tashkil etish va mazkur tizim faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha "Olmaliq KMK" AJ xodimlarining malakasi oshirildi.	